

**BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING IJTIMOYIY KOMMUNIKATIV KO'NIKMALARINI
SHAKLLANTIRISHNING PSIXOPEDAGOGIK MEKANIZMLARI**

Zayirkulova Nozima Ilyas qizi

Toshkent iqtisodiyot va pedagogika universiteti

Pedagogika, psixologiya va boshlang'ich ta'lim kafedrası o'qituvchisi

<https://orcid.org/0009-0006-5709-2921>

nozimazayirkulova176@gmail.com

Rustamova Dilnoza Alijon qizi

Toshkent iqtisodiyot va pedagogika universiteti talabasi

rustamovadilnoza698@gmail.com

Annotatsiya:

Maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarida ijtimoiy-kommunikativ ko'nikmalarni shakllantirishning psixopedagogik mexanizmlari tadqiq etilgan. 60 nafar o'quvchi ishtirokidagi pedagogik eksperiment natijalari shuni ko'rsatdiki, interaktiv va sotsial-psixologik o'yinlarni maqsadli qo'llash orqali bolalarda hamkorlik, empatiya hamda nizolarni konstruktiv hal etish qobiliyati o'rtacha 34% ga oshgan. Tadqiqot yakunida o'qituvchi va amaliyotchi psixologlar uchun ilmiy asoslangan metodik tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: ijtimoiy-kommunikativ ko'nikmalar, psixopedagogik mexanizm, boshlang'ich ta'lim, ijtimoiylashuv, empatiya, sotsiometriya, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim, interaktiv metodlar.

Abstract:

The article investigates the psycho-pedagogical mechanisms of forming socio-communicative skills in primary school students. The results of a pedagogical experiment involving 60 students showed that the targeted application of interactive and socio-psychological games increased the children's abilities in cooperation, empathy, and constructive conflict resolution by an average of 34%. At the end of the study, scientifically based methodological recommendations were developed for teachers and practicing psychologists.

Keywords: socio-communicative skills, psycho-pedagogical mechanism, primary education, socialization, empathy, sociometry, student-centered education, interactive methods.

KIRISH (INTRODUCTION)

Mavzuning dolzarbligi: Zamonaviy ta'lim tizimining asosiy maqsadi faqatgina akademik bilimlarni berish emas, balki jamiyatda muvaffaqiyatli faoliyat yurita oladigan, ijtimoiy moslashuvchan shaxsni tarbiyalashdan iboratdir. XXI asr ko'nikmalari (4K modeli: Kreativlik, Kolloboratsiya, Kommunikatsiya, Kiritik fikrlash) orasida kommunikatsiya yetakchi o'rinni egallaydi. Boshlang'ich maktab yoshi (7-11 yosh) bolaning ijtimoiy munosabatlar tizimi keskin o'zgaradigan, o'yin faoliyatidan o'quv faoliyatiga o'tiladigan muhim ontogenetik bosqich hisoblanadi. Aynan shu davrda o'quvchining sinf jamoasi, o'qituvchi va oila a'zolari bilan muloqotining yangi modellari shakllanadi.

Muammoning o'rganilganlik darajasi: Ijtimoiy-kommunikativ ko'nikmalar muammosi L.S. Vigotskiyning madaniy-tarixiy konsepsiyasi hamda J. Piaje tadqiqotlarida o'z ifodasini topgan. Mahalliy olimlardan E. G'oziyev, V. Karimova kabi psixologlar shaxs ijtimoiylashuvida muloqotning o'rnini tadqiq etishgan. Ushbu muammo, ayniqsa, bugungi kunda keng joriy etilayotgan inkluziv ta'lim sharoitida yanada o'tkir ahamiyat kasb etmoqda. O'zbekistonda maxsus pedagogika va inkluziv ta'limning yetakchi olimlaridan biri L.R. Mo'minova o'zining "Inklyuziv ta'lim" (2019) asarida ta'kidlashicha, bolalarning ijtimoiy moslashuvi va muvaffaqiyatli o'quv faoliyati bevosita ularning tengdoshlari bilan to'laqonli muloqot o'rnata olish qobiliyatiga tayanadi. Olima inkluziv muhitni shunchaki turli ehtiyojli bolalarning bir sinfda o'tirishigina emas, balki psixologik to'siqlarsiz "uzluksiz kommunikativ hamkorlik maydoni" sifatida baholaydi (Muminova 2019). Shunga qaramay, axborot muhitining tezkor o'zgarishi sharoitida boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijtimoiy-kommunikativ ko'nikmalarini rivojlantiruvchi konkret psixopedagogik mexanizmlar hanuzgacha yetarlicha tizimlashtirilmagan.

Tadqiqotning maqsadi: Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijtimoiy-kommunikativ kompetensiyalarini baholash va ularni rivojlantirishga xizmat qiluvchi samarali psixopedagogik modelni ishlab chiqish hamda amaliyotda sinab ko'rish.

2. METODOLOGIYA (METHODS)

Tadqiqot dizayni va ishtirokchilari:

Tadqiqot 2025-2026 o'quv yilining dekabr martoylarida Bekobod shahar 17-umumta'lim maktabining 3-sinf o'quvchilari orasida o'tkazildi. Tadqiqotga jami 60 nafar o'quvchi (30 nafar qiz, 30 nafar o'g'il bola) jalb etildi. Ular ikkita teng guruhga ajratildi: **Nazorat guruhi (30 nafar):** An'anaviy o'quv dasturi asosida ta'lim oldi.

Eksperimental guruh (30 nafar): Ta'lim jarayoniga ijtimoiy-kommunikativ ko'nikmalarni rivojlantiruvchi maxsus "Muloqot madaniyati" dasturi va interaktiv metodlar (rolli o'yinlar, juftlikdagi ishlar, art-terapiya elementlari) integratsiya qilindi.

Tadqiqot metodikasi: O'quvchilarning muloqot darajasini o'lchash uchun quyidagi empirik metodlardan foydalanildi: **J. Morening "Sotsiometriya" usuli:** Sinfdagi ijtimoiy maqomni (liderlar, qabul qilinganlar, chetga surilganlar) aniqlash. **V. Mixalchi va R. Jukovanning kommunikativ layoqatni aniqlash so'rovnomasi:** O'quvchilarning o'zaro hamkorlik qilish va nizoli vaziyatlardan chiqish qobiliyatini baholash **Kuzatish usuli:** Dars va tanaffus vaqtida bolalarning noverbal (imo-ishora, mimika) va verbal muloqotini tizimli qayd etish.

Eksperiment jarayoni: Eksperiment 3 oy davom etdi. Eksperimental guruhda haftada bir marta "Sinf soati" o'rniga maxsus psixologik treninglar o'tkazildi. Asosiy e'tibor o'quvchilarda faol tinglash, empatiya (boshqalar his-tuyg'usini tushunish) va o'z fikrini argumentlash ko'nikmalarini shakllantirishga qaratildi.

NATIJARLAR (RESULTS)

Tadqiqotning dastlabki (aniqlovchi) bosqichida har ikkala guruh o'quvchilarining ijtimoiy-kommunikativ ko'nikmalari deyarli bir xil, o'rtacha va past darajada ekanligi qayd etildi. Ko'p hollarda bolalar o'zaro birgalikdagi topshiriqlarni bajarishda kelisha olmaslik, liderlikka asossiz intilish yoki aksincha, tortinchoqlik sababli guruh ishidan chetda qolish holatlarini namoyon qildi. Eksperiment yakunida o'tkazilgan qayta diagnostika natijalari eksperimental guruhda ijobiy tomonga keskin o'zgarishlar bo'lganini ko'rsatdi.

Jadval 1. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining kommunikativ ko'nikmalari rivojlanish darajasi (eksperimentdan oldin va keyin, % hisobida)

Ko'nikma darajasi	Nazorat guruhi (Oldin)	Nazorat guruhi (Keyin)	Eksperimental guruh (Oldin)	Eksperimental guruh (Keyin)
Yuqori (Faol muloqot, empatiya, hamkorlik)	16%	20%	15%	49%
O'rtacha (Vaziyatga qarab muloqot qilish)	52%	55%	54%	40%
Past (Nizolilik, muloqotdan qochish, uyatchanlik)	32%	25%	31%	11%

Sotsiometrik tahlil natijalari shuni ko'rsatdiki, eksperimental guruhda "rad etilgan" (hech kim o'rtoq bo'lishni xohlamagan) bolalar soni eksperiment boshidagi 5 nafardan eksperiment oxiriga kelib 1 nafarga tushdi. Bolalar o'rtasidagi o'zaro tanlovlar va ijobiy ijtimoiy aloqalar tarmog'i kengaydi.

MUHOKAMA (DISCUSSION)

Olingan empirik natijalar boshlang'ich sinf o'quvchilarida ijtimoiy-kommunikativ ko'nikmalarni shakllantirish stixiyali (o'z-o'zidan) kechadigan jarayon emasligini, balki maqsadli psixopedagogik aralashuvni talab etishini tasdiqladi. Bizning tadqiqotimiz asosida ushbu jarayonni harakatga keltiruvchi 3 ta asosiy psixopedagogik mexanizm ajratib ko'rsatildi: **Kognitiv-axborot mexanizmi (Bilish mexanizmi)**: Bola nima uchun va qanday muloqot qilish kerakligini anglashi kerak. Muloqot qoidalari, salomlashish madaniyati, so'rov va minnatdorchilik bildirish kabi kognitiv shablonlar bolaning xotirasida saqlanadi. Eksperimental guruhda dars jarayonida "Iltimos", "Rahmat", "Sening fikringcha qanday?" kabi so'z konstruksiyalaridan doimiy foydalanish qoidasi joriy etilishi natijasida bolalarning so'z boyligi sotsial jihatdan boyidi. **Emotsional-perseptiv mexanizm (Empatiya va qabul qilish)**: Muloqot faqat axborot almashish emas, balki suhbatdoshning hissiy holatini tushunishdir. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida hissiy intellekt endi shakllanayotgan bo'ladi. Biz qo'llagan art-terapiya va yuz ifodasini topish o'yinlari bolalarda empatiya hissini kuchaytirdi. Ular o'rtog'ining xafa yoki xursand ekanligini noverbal belgilardan o'qishni o'rgandilar, bu esa o'zaro ziddiyatlarning (masalan, kimningdir ustidan kulish holatlarining) oldini oldi. **Faoliyatli-interaktiv mexanizm (Hamkorlik va amaliyot)**: Ko'nikma faqat harakatda shakllanadi. An'anaviy darslarda o'quvchi asosan o'qituvchi bilan "sub'ekt-ob'ekt" munosabatida bo'ladi. Interaktiv mexanizm darslarga juftlikda va kichik guruhlarda ishlashni joriy etish orqali "sub'ekt-sub'ekt" munosabatlarini yaratdi. Bolalar umumiy maqsadga erishish uchun (masalan, birgalikda rasm chizish yoki loyiha tayyorlash) o'zaro murosaga kelishni, vazifalarni bo'lishishni va boshqalar oldida mas'uliyatni his qilishni amalda o'rgandilar.

XULOSA VA TAVSIYALAR (CONCLUSION)

Boshlang'ich ta'lim shaxsning poydevori hisoblanadi. Tadqiqotimiz natijalariga tayangan holda quyidagi yakuniy xulosalarni shakllantirish mumkin:

Ijtimoiy-kommunikativ ko'nikmalar o'quvchining akademik o'zlashtirishiga bevosita ijobiy ta'sir ko'rsatadi. O'zaro erkin muloqot qila oladigan bolalar darslarni tezroq tushunadi va tahlil qila oladi.

An'anaviy ta'lim modellari o'quvchilarning muloqot layoqatini rivojlantirish uchun yetarli emas; darslarga muntazam ravishda sotsial-psixologik o'yinlar va guruhli ishlash elementlari kiritilishi shart.

Amaliyotchi pedagoglar va psixologlarga tavsiyalar:

"Ertalabki davra" (Morning circle) amaliyotini joriy etish: Har kuni dars boshlanishidan oldin 5-10 daqiqa davomida o'quvchilar aylana bo'lib o'tirishi va o'z kayfiyatlari, rejalari bilan bo'lishishlari. Bu ijtimoiy ishonch muhitini yaratadi.

Guruhli rollarni almashtirish: Har bir darsda etakchi, vaqt kuzatuvchisi, g'oya beruvchi kabi rollarni barcha o'quvchilarga navbatma-navbat taqsimlash. Bu chetda qolib ketadigan (introvert) bolalarni jamiyatga tortishning eng oson yo'lidir.

Sotsiometrik monitoring: Har chorakda sinfdagi ijtimoiy muhitni yashirin o'rganish va o'quvchilarni partaga o'tqazish sxemasini shu asosda, bolalar o'rtasida do'stlikni rag'batlantiradigan tarzda o'zgartirib borish.

Foydalanilgan adabiyotlar (References):

1. Egorova, M. A., & Zarechnaya, A. A. (2019). Osobennosti razvitiya sotsialno-kommunikativnix kompetensiy mladshix shkolnikov s zaderjkoy psixicheskogo razvitiya. *Psixologicheskaya nauka i obrazovanie*, 24(3), 74–84. <https://doi.org/10.17759/pse.2019240307>
2. Elkonin, D. B. (2001). *Kichik maktab yoshidagi bolalar psixologiyasi*. Moskva: Prosvesheniye.
3. G'oziyev, E. G'. (2010). *Umumiy psixologiya*. Toshkent: Yangi asr avlodi.
4. Ilchenko, K. A. (2021). Narusheniye norm povedeniya kak proyavleniye shkolnoy dezadaptatsii. *Pedagogika: istoriya, perspektivi*, 4(4), 13–20. <https://doi.org/10.17748/2686-9969-2021-4-4-13-20>
5. Karimova, V. M. (2002). *Ijtimoiy psixologiya*. Toshkent: Fan va texnologiya.
6. Kunnazarova, G. I. (2023). Ma'naviy-ma'rifiy ishlar jarayonida badiiy asarlar vositasida talabalarning ijtimoiy kommunikativ faolligini rivojlantirishning ahamiyati. *Innovative Academy*. <https://doi.org/10.5281/zenodo.8113119>
7. MacDonald, M., Lord, C., & Ulrich, D. A. (2013). The relationship of motor skills and social communicative skills in school-aged children with autism spectrum disorder. *Adapted Physical Activity Quarterly*, 30(3), 271-282. <https://doi.org/10.1123/apaq.30.3.271>
8. Masharipova, D. (2024). Boshlang'ich sinf o'quvchilarida kommunikativ kompetensiyani shakllantirishda sun'iy intellekt elementlari asosida ta'limni tashkil etishning pedagogik-metodik modeli. *Zenodo*. <https://doi.org/10.5281/zenodo.18762263>
9. Parpiyev, O. O. (2023). Maktabga tayyorlashning ilmiy pedagogik asoslari. *Qo'qon universiteti xabarnomasi*, 1(1), 876–881. <https://doi.org/10.54613/ku.v1i1.748>
10. Qodirova, M. Sh. (2023). Inklyuziv ta'lim jarayonida autizm spektri buzilgan bolalarning pedagogik-psixologik yondashuvi. *Maktabgacha va maktab ta'limi jurnali*. <https://doi.org/10.5281/zenodo.18077548>
11. Rajabboyeva, G. (2024). Boshlang'ich sinf o'quvchilarida kommunikativ madaniyatni shakllantirish. *Nauka i texnologiya v sovremennom mire*, 3(4), 81–83. <https://in-academy.uz/index.php/zdift/article/view/30195>
12. Salimova, D. H. (2025). Boshlang'ich sinf o'quvchilarida multimodal kommunikativ kompetensiyani shakllantirish metodikasini takomillashtirish. *Worldly Journals*. <https://worldlyjournals.com/index.php/IFX/article/view/14265>
13. Shoyqulova, D. (2025). Boshlang'ich sinf o'quvchilarida kommunikativ kompetensiyalarni shakllantirishning nazariy asoslari. *Central Asian Journal of Education and Innovation*, 4(3), 51-58. <https://doi.org/10.5281/zenodo.15030427>

14. Tkacheva, V. V., & Simonova, T. N. (2021). Modelling Social & Communicative Skills in Children with Special Educational Needs. *Propósitos y Representaciones*, 9(SPE2), e1046. <https://doi.org/10.20511/pyr2021.v9nSPE2.1046>
15. Valiyeva, N. A., & To'raqulova, C. (2024). Boshlang'ich sinf o'quvchilarining matematika darslarida kommunikativ qobiliyatlarini rivojlantirish. *University Research Base*. <https://scholar.kokanduni.uz/index.php/rb/article/view/163>
16. Vigotskiy, L. S. (1991). *Pedagogik psixologiya*. Moskva: Pedagogika.
17. Xidirova, G. B. (2023). Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirish tizimining mantiqiy tuzilmasi va mazmuni. *Obrazovanie nauka i innovatsionnie idei v mire*. <https://doi.org/10.64941/ywx5sv86>
18. Xolmurodova, O. A. (2025). Developing social-communicative skills in primary school students. *Multidisciplinary Journal of Science and Technology*, 5(1), 398-400. <http://www.mjstjournal.com/index.php/mjst/article/view/2476>
19. Zarechnaya, A. A., & Ivanova, S. M. (2025). Skazkoterapiya kak sredstvo formirovaniya sotsialno-kommunikativnix navikov u mladshix shkolnikov. *Russian Journal of Education and Psychology*, 16(2), 70-85. <https://doi.org/10.12731/2658-4034-2025-16-2-705>
20. Ziyodullayeva, M. N. (2026). Boshlang'ich sinf o'quvchilarida kommunikativ nutq malakasini rivojlantirishning metodologik asoslari. *Maktabgacha va maktab ta'limi jurnali*. <https://doi.org/10.5281/zenodo.18849195>
21. Shomaxmudova, R. Sh., Muminova, L. R. (1993). *Bog'cha va kichik maktab yoshidagi bolalar nutqidagi nuqsonlarni tuzatish*. Toshkent: O'qituvchi.
22. Muminova, L. R., Shomaxmudova, R. Sh., Axmedova, Z. M. (2019). *Inklyuziv ta'lim*. Toshkent.